



Proceedings of  
7th International Multidisciplinary Scientific Conference

# **GLOBAL TECHNOVATION**

- Free Publication
- E- Proceedings
- E-Certificate
- Virtual Presentations

**May, 30th 2021**

**Conference Themes**  
Social Sciences    Human  
Education    Management  
Technology



zenodo



Platform &  
workflow by  
OJS / PKP

[www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com)



THE AMERICAN JOURNAL OF  
INTERDISCIPLINARY  
INNOVATIONS AND  
RESEARCH

(TAJIIR)

SJIF-5.498

DOI-10.37547/tajiir

Volume 2 Issue 12, 2020

ISSN 2642-7478

**The USA Journals, USA**  
[www.usajournalshub.com/index.php/tajiir](http://www.usajournalshub.com/index.php/tajiir)



1. **TYPES OF FUNGI ISOLATED FROM SOYBEANS IN THE TASHKENT REGION AND THEIR SYSTEMATIC ANALYSIS**  
Khodjamkulova SS, Nizomiddinov K, Tilova TB  
1-2
2. **ROMANIAN AND NAVOI: TRADITION AND HERITAGE**  
Kamolova Aida Alisher qizi, Associate Professor Hoshimjon Ahmedov  
3-6
3. **SIMILARITY AND DIFFERENCE OF THE DESCRIPTION OF NATURE IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF AND SERGEY YESEN**  
Qalandarova G. A  
7-9
4. **IN THE POETRY OF MINHOJIDDIN MIRZO HOMELAND SUBJECT**  
Salimjon Ganiev, Hulkar Khamroeva  
10-14
5. **YOSHLARNI TARBİYALASHDA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR TIZIMI**  
Palimbetova Jayxun Qutlimuratovna, Xalmenova Xalida Polatovna  
15-17
6. **COMBINATION OF PHYSICAL AND SPIRITUAL STRENGTHS AS A FACTOR OF A HEALTHY LIFESTYLE CULTURE (EXAMPLE OF GAME ACTIVITY)**  
Nabieva Naima Kamolovna, Valiev Zokir Sulaymonovich  
18-20
7. **RESULTS OF THE COTTON GRINDING PROCESS IN THE COTTON CLEANER FROM SMALL DIRTY**  
SHeraliev, TMKuliev, RK Jamolov  
21-23
8. **THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION**  
Aimov Quwanish Tursinbekovich, Abatov Askar Reyimbaevich, Ibragimova Bibiraba Tayirovna  
24-26
9. **LOVE TOPIC IN UTKIR HASHIMOV'S STORIES**  
Mukhtorova Maftuna Erkin qizi  
27-28
10. **THE IMPACT OF TOXIC COMPOUNDS RELEASED INTO THE ATMOSPHERE ON THE NATIONAL ECONOMY**  
Usmonova Maftuna Ibodullo Qizi, Qalandarova Dilobar Davronovna  
29-31
11. **MANAGEMENT OF PERSONNEL SUPPORT IN THE SPHERE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN THE NEW SOCIO ECONOMIC CONDITIONS**  
Ikramova Indira Zufarovna  
32-33
12. **LIFE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR. BABUR'S SCIENTIFIC HERITAGE AND ITS STUDY, ITS PLACE AND SIGNIFICANCE FOR THE PRESENT**  
Boboyev Mirodillo  
34-37
13. **SOME ASPECTS OF QUICK-SEARCH ACTIVITIES**  
Rustam Nishonxo'jayevich Raximxo'jayev  
38-39
14. **TO THE QUESTION OF IMPROVING THE DESIGN OF THE DEVICE FOR DETERMINING THE CONTAMINATION OF RAW COTTON**  
U.K. Karimov, A. Akhmedov, Sh.Sheraliev  
40-44

## THE IMPACT OF TOXIC COMPOUNDS RELEASED INTO THE ATMOSPHERE ON THE NATIONAL ECONOMY

Usmonova Maftuna Ibodullo Qizi

Buxoro Davlat Universiteti, 3- bosqich talabasi

Qalandarova Dilobar Davronovna

Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrasini o'qituvchisi

**Annotation:** This article highlights the negative impact of toxic compounds released into the atmosphere on the human body, agriculture, and society as a whole, and outlines some methods of eliminating.

**Keywords:** Ecology, atmosphere, carbon, toxic compounds, lead, arsenic, copper, cadmium, pesticides, radioactive elements.

## ATMOSFERAGA CHIQRILAYOTGAN ZAHARLI BIRIKMALARNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

## ВЛИЯНИЕ ВЫБРАСЫВАЕМЫХ В АТМОСФЕРУ ТОКСИЧНЫХ СОЕДИНЕНИЙ НА НАРОДНОЕ ХОЗЯЙСТВО

Usmonova Maftuna Ibodullo Qizi

Buxoro Davlat Universiteti, 3- bosqich talabasi

Qalandarova Dilobar Davronovna

Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrasini o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqotada atmosferaga chiqarilayotgan zaharli birikmalarning inson organizmiga, qishloq xo'jalik sohaslariga, butun jamiyat hayotiga salbiy ta'siri yoritib berilgan va uni bartaraf etishning ba'zi bir metodlari keltirib o'tilgan.

**Kalits'o'zlar:** Ekologiya, atmosfera, uglerod, azot, zaharli birikmalar, qo'rg'oshin, marganzum, mis, kadmiiy, pestitsid, radioaktiv moddalar

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается негативное воздействие токсичных соединений, выбрасываемых в атмосферу, на организм человека, сельское хозяйство и общество в целом а также описываются некоторые методы его устранения.

**Ключевые Слова:** Экология, атмосфера, углерод, токсичные соединения, свинец, мышьяк, медь, кадмий, пестициды, радиоактивные элементы.

Inson o'ziga kerakli hamma narsani tabiatdan oladi. Ishlatib bo'lgan, keraksiz chiqindilarni esa tabiatga chiqarib tashlaydi. Shuning uchun ham tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro ta'sir to'xtovsiz davom etadi. Inson hayotining farovonligi, odamlarning sog'lig'i, ishlab chiqarishning rivojlanishi tabiiy sharoitga, tabiiy boyliklarga, ayniqsa, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlarning qay darajada ekanligiga, ya'ni inson tabiat va uning boyliklaridan qanday foydalanayotganiga, tabiatni qanday muhofaza qilayotganiga bog'liq.



Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo'lib, u umummiy boyluk hisoblanadi. (O'zbekiston Respublikasi Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi Qonuni, I-modda.)<sup>1</sup>

Hozirgi davrda mazkur masala yanada jiddiy ahamiyat kasb etib, jamiyatning eng birinchi o'rinida hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalari qatoridan joy oldi. Insoniyat o'zining ko'p ming yillik hayotiy tajribalari jarayonida sof havo, toza suv va shifobaxsh tabiatning inson salomatligi uchun nihoyatda zarur ekanligini payqadi. Ammo bugungi industrial zamonda atmosferaga chiqarilayotgan zaharli birikmalar miqdori oshib ketayotganligini kuzatishimiz mumkin. Buning natijasi o'laroq insonning ekologik jihatdan talab darajasida bo'lmagan bunday havodan nafas olishi ko'pgina ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi, ba'zan bu holat o'lim bilan tugaydi. Atmosfera havosi tarkibida qo'rg'oshin (Pb), marganush (As), mis (Cu) va boshqa og'ir metallarning qattiq birikmalari, oltinugurt gazi (SO, SO<sub>2</sub>), uglerod oksidi (CO, CO<sub>2</sub>), fluor birikmasi (HF, F<sub>2</sub>O), azot oksidlari (N<sub>2</sub>O, NO, N<sub>2</sub>O<sub>2</sub>) ammiak (NH<sub>3</sub>), uglevodorod va boshqa gazsimon va suyuq moddalar me'yordan oshib ketse, bunday havo tirik organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi oltinugurt ikki oksidi (SO<sub>2</sub>) va uning birikmalari har m<sup>3</sup> havoda 0,85 mg dan ziyod bo'lganda ko'zning shilliq pardasini va nafas olish yo'lini yallig'lantiradi. Uglerod oksidining (CO) 0,5 mg dan ortishi qondagi gemoglobinning keskin ko'tarilishiga, qonning quyuvlashuviga, to'qimalarda kislorodning yetishmasligiga olib keladi, asab va yurak-qon tomirlari tizimlarining betartib harakatini keltirib chiqaradi. Florli birikmalarning (HF) 0,005 mg dan ortib ketishi natijasida teri va ko'z shilliq pardasi keskin yallig'lanadi, burundan qon keladi, tumov va yo'talga moyillikni oshiradi. Azot ikki oksidi (N<sub>2</sub>O) miqdori 0,06 mg dan ortsa organizmda o'pka va nafas yo'llarini kuchli yallig'laydi, ularda shamollashning vujudga kelishiga ko'maklashadi, qon bosimi kamayadi. Qo'rg'oshin (Pb) va uning birikmalari 0,0017 mg dan ortganda organizmda zaharli moddalarning yig'ilishiga sharoit yaratadi, qonning tarkibini o'zgartiradi va miya suyagiga ta'sir ko'rsatadi, muskullarning kuchsizlanishini oshiradi, asab tizimini buzadi, bosh miyaning shamollashi, buyrak va jigarning zarartanishi kuzatiladi. Ayniqsa bolalar uchun xavfli, jismoniy o'sishni sekinlashtiradi. Tabiiy qo'rg'oshin (Pb) ta'sirida organizmda modda almashinuvini buziladi, bolalarning aqliy jihatdan orqada qolishi va miyaning xronik kasallanishi sodir bo'ladi. Simob (Hg) ko'proq jigar va buyrakda to'planadi, modda almashinuvini buzadi, kadmiy (Cd) bolalar nutqining buzulishiga olib keladi, mishyak (As) o'pka va teri rakini keltirib chiqaradi. Qishloq xo'jaligida qo'llanadigan pestitsidlardan har yili jahonda 1 mln kishi zaharlanadi, ulardan taxminan 15-20 ming kishi hayotdan ko'z yumadi. Avtomobillardan chiqadigan benzopirin (C<sub>20</sub>H<sub>12</sub>) moddasi, radioaktiv moddalar o'pka rakini keltirib chiqaradi. Atmosferadagi kislorod (O<sub>2</sub>) miqdorining ortishi gipertoniya krizlari va miya insultlarining ko'payishiga olib keladi.

Atmosfera chiqarilayotgan ushbu zaharli gazlar endilikda nafaqat inson organizmiga, balki butun sayyoramiz miqyosida o'z ta'sir doirasini ko'rsatayotganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Bugungi industrial jamiyatimiz uchun asosiy global muammo bo'lib kelayotgan: "Issiqxona samarasi" muammosi, "Ozon qatlamining yemirilishi", "kislotali yomg'irlar yog'ishi kabi global muammolar ham zaharli birikmalarning atmosferaga me'yordan ortiq chiqarilishi natijasida vujudga kelgan. Atmosfera elektro-energetika, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari, transport vositalari, fazoga kosmik kemalarni ucharish hamda o'rmonlarda vujudga kelayotgan yomg'irlar tufayli kuchli ifloslanmoqda. Har yili milliardlab tonna qattiq, gazsimon, aerozol chiqindilar atmosferaga chiqarib yuborilmoqda. Atmosfera tarkibida ayniqsa, is gaz, karbonat angidrid, oltinugurt oksidlari, azot dioksidi salmog'ining oshib borishi katta ekologik muammolarning vujudga kelishi, ayniqsa kislotali yomg'irlar yog'ishiga sabab bo'lmoqda.

Kislotali yomg'irlar nafaqat o'rmonlarning yo'qolishi, hosildorlik va yer unumdorligining pasayishiga, balkim ko'l, daryo va boshqa suv havzalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ulardagi taxirlik darajasi ko'tarilib, suvdagi o'simlik va hayvonlar nobud bo'ladi. Suv tubida organik moddalar ko'payib, ulardan zaharli metallar-alyuminiy, simob, qo'rg'oshin, kadmiy ajralib chiqadi. Ushbu zaharli suvga o'tib inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Keyingi yillarda havoga fluor-xlorli birikmalar (freonlar)ning ko'p chiqarib yuborilishi natijasida Yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan ozon qatlamining tobora yupqalashib borishi kuzatilmoqda. "Ozon

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi — Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun.



qatlami<sup>2</sup>ning yemurilishi natijasida quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarining yer betiga yetib kelishi oqibatida insoniyatda teri saratoni bilan kasallanish keskin ortadi. Bundan tashqari insonning immun tizimida susayish kuzatiladi, ko'zlar zarartanadi.

Bundan tashqari atmosferadagi zaharli birikmalar butun jamiyat hayotiga ta'sir qiladi, jamiyki tirik organizmlar, hayvon, o'simliklarda ham kasallanish va nobud bo'lishlar soni ortib boradi. Birgina O'zbekiston misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, Tojikistondagi Tursunzoda aluminiy zavodidan chiqayotgan zaharli fluor gazi bilan Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari havosi ifloslangan. Natijada tumanlarda bolalar o'limi ko'paymoqda, uzum va mevali daraxtlarning bargi sarg'ayib, qoramollar kasallanib, tishi to'kilib ketmoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi inqiroziga sabab bo'lishi bilan birga jamiyat hayotida ham moddiy ham ma'naviy zarar yetkazadi.

"Ozon" muammosini oldini olish borasida Kanadaning Montreal shahrida 1987-yilda bir nechta davlatlar freon gazlarini ishlab chiqarishga va ulardan foydalanishga cheklolar to'g'risidagi xalqaro bitimni imzolagan<sup>3</sup>. Bugungi kunga kelib bu bitimga jahondagi aksariyat mamlakatlar qo'shilgan. Mutavassislarning fikricha, agar Montreal bitimi qat'iy ravishda bajariladigan bo'lsa, ozon qatlamining me'yordagi qalinligi 2050-yilga kelib qayta tiklanadi.

Lekin hozir tabiatga inson xo'jaligi faoliyatining ta'siri natijasida respublikamizning ba'zi okruglari (Orolbo'yi, Surxon vodiysi, Quyi Zarafshon va Quyi Amudaryo)da ekologik holat yomonlashib bormoqda. O'zbekiston havosining ifloslanishida energetika, neft-gaz sanoati, transport, kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, maishiy-kommunal xo'jalikning hissasi katta.

Sayyoramiz havosini toza saqlash uchun korxonalarda zamonaviy tozalovchi inshootlar qurish zarur. Bunda havoni ifloslovchi moddalarni ushlab qolib, ulardan qayta foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Bu muammolarni oldini o'tish va bartaraf etish uchun quyidagi amallarni joriy etishimiz lozim:

- avtotransportdan chiqadigan zararli birikmalarni iloji boricha kamaytirish;
- sanoatda chiqindi chiqarmaydigan yuksak texnologilardan foydalanish;
- maishiy chiqindilarni iloji boricha qayta ishlashni joriy etish;
- konlardan qazilmalarni qazib chiqarish jarayonida karyer atrofida iloji boricha zaharli birikmalarni yutuvchi, havoni tozalovchi texnologilar o'rnatish;
- ekologik jihatdan toza bo'lgan bioyoqilg'ilarni ishlab chiqarish;
- hududlarda ekologik siyosatni keng joriy etish;
- aholi orasida ekologik madaniyatni shakllantirish, yoshlikdanoq (bog'cha va maktab darslari davomida) bu tushunchani o'quvchilar ongida singdirib borish;
- sayyoramiz bioxilma xilligini saqlab qolish uchun yashil zonalarini ko'paytirish, buning uchun har bir mamlakat doirasida muhofaza etilayotgan hududlar kamida mamlakat umumiy yer fondining 10 % dan ortiq qismini egallashi lozim.

## Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг табиатни муҳофаза қилиш тўғрисидаги қонун (1993-йил 9-декабр) 9-10 б.
2. Тўхтаев А. С. Экология. - Т.: Ўқитувчи, 1998. (26-б)
3. Хайитбойев Р., Хайитбойев К., Худойберdiyev У.Х. «Табиатдан фoydalanish iqtisodi». Samarqand, 2004.(122-б)
4. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. "Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" 9-sinf dastik 2019.(21-22 b)
5. G'ulomov P., Vahobov H., Baratov P., Mamatqulov M. 7-sinf darstik, 2017-y( 103-104 b)
6. [www.ziyounet.tuz](http://www.ziyounet.tuz)

<sup>3</sup> Kanadaning Montreal shahrida 1987-yilda bir nechta davlatlar freon gazlarini ishlab chiqarishga va ulardan foydalanishga cheklolar to'g'risidagi xalqaro bitimni imzolagan